IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON , VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

INSON HAYOTIDA TIBBIYOTNING O‘RNI

Muallif	**Turdiyeva Sevara Farxodovna**
O’qish yoki ish joyi	**mustaqil izlanuvchi**
Qabul qilindi	**03.10.2023**
Nashr qilindi	**06.10.2023**

Annotatsiya
Ushbu maqolada inson salomatligini asrab avaylashda tibbiyotning o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib berildi. Shu bilan birga insoniyat uchun xavf tug‘dirayotgan turli xil kasalliklar va ularning namoyon bo‘lish shakllari asoslab berildi.
Kalit so‘zlar
Jamiyat, tibbiyot, shaxs, jarroh, ta’lim-tarbiya, sport.

Jamiyat ma’naviy hayotida inson salomatligi benihoya muhim va qadrlidir. Shaxsni shakllanishida albatta, unda ong va qalb uyg‘uniligi barqaror bo‘lsa, uning tanasi va ichki a’zolari ong va qalbni doim bir me’yorda ishlash vazifasini bajarib beradi. Biz insoniyat necha ming yillardan beri uzoq umr ko‘rish sirini aniqlash uchun tinim bilmasdan izlanishlar olib bormoqdamiz. Tibbiyot sohasidagi olimlarimiz bu borada bir talay ishlarni olib bormoqda. Lekin insonga a’to etilgan “umr” bu-insoniyatning bebaho ne’matidir.

Shaxs, jamiyat va odam bu-tabiatning borlig‘ini doim kuzatib boradi va o‘zicha yangi xulosalar chiqaradi. Bu xulosalar ichidagi eng muhimi bu “inson salomatligi”dir. Biz tahlil qilayotgan muammo ham aynan mana shu mavzuda bo‘lib, odam va olam o‘rtasidagi munosabatlarda namoyon bo‘lib boradi. Yunon tibbiyot otasi Gippokrat “tibbiyot qasami”ni ichgandan so‘ng insoniyat taraqqiyoti jarayonida ko‘plab tabiblar bu kasbga o‘z sadoqatlari bilan xizmat qilib kelmoqdalar. Shubhasiz, tabiblar orasida kasbga nisbatan ham xiyonat qilguvchilar ham yo‘q emas albatta. Agar davlat va siyosat bir darajada “inson salomatligi” uchun qayg‘ursa demak bu kasb egalari o‘z jonlarini xatarga qo‘ymaydilar. Bu borada biz tarixda hukmronlik qilgan Qadimgi Bobil hukmdori Xammurappi tomnidan ishlab chiqarilgan “Xammurappi qonunlar” to‘plamida shunday bitiklarni uchratish mumkin: “Agar jarroh o‘z kasbini chuqur bilmasdan va anglamasdan turib jarrohlik stolida bemorni o‘ldirib qo‘ysa, jarroh jarrohlik stolida qatl ettirilsin” degan hukm chiqarilgan ekan. Demak o‘sha davrlarda ham inson faktoriga, uning qadriga bo‘lgan munosabat davlat va siyosat tomonidan nechog‘lik ulug‘langanligini va qadrlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Tibbiyotda falsafadagi mavjud qonuniyatga ko‘ra “aniqlik” talab etiladi. Tibbiyot sohasining xodimi o‘z bilimlari ustida doim ishlashni va izlanishni talab etadigan uzluksiz jarayon ekanligin anglashi lozim. Chunki bemor qiyofasidagi inson ulardan najot so‘rab o‘z umrini uzaytirishni so‘rab murojaat qiladi. Ming afsuski hozir juda ko‘plab tibbiyot oliygohlarini savodsiz, o‘z kasbiga xiyonatkor soxta tabiblar yetishib chiqmoqda. Alaloqibatda esa insoniyat umrini juda tez poyoniga yetkazuvchi soxta “qassob tabib”lar qo‘lida qolmoqda.

Bu borada biz qanday islohotlarni amallga oshirishim mumin? Bu borada odamlar dunyoqarashini o‘zgartiruvchi jarayonlar nimalardan iborat ekanligini bilishimiz mumkin? Umuman jamiyat taraqqiyoti ma’lum bir muammolar bilan hamohang ravishda taraqqiy etib boradi. Albatta bu islohotlarni amalga oshirishda quyidagi vaziflarni bajarishmiz lozim. Bu borada:

Birinchidan, davlatimizda ta’lim-tarbiyaga birinchi darajali ahamiyat berilishi shart. Chunki ta’lim-tarbiya orqali iymoni, e’tiqodi, axloqiy fazilatlari, milliy mas’uliyat tuyg‘usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma’naviy barkamol fuqarolar tarbiyalanadi va shakllanadi. Bu borada Buyuk kelajak ma’naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko‘taradi. Boshqacha aytganda ma’naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni

yarata oladilar. Shuning uchun mustaqillikning ilk yillaridan boshlab yoshlarni har tomonlama barkamol avlod etib tarbiyalash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilab olindi.

Ta’lim-tarbiya orqali jamiyat uyg‘onadi va o‘z qaddini rostlaydi. Talim-tarbiya nafaqat jamiyat taraqqiyotiga balki inson hayotiga ham yorug‘lik olib kiruvchi “mayoq”dir. Shu barobarida ta’lim-tarbiya orqali inson uzoq umr ko‘rish darajasi ustida ilmiy ishlar amalga oshiriladi. Shulardan kelib chiqqan holda, qomusiy bilim sohibi, bobokolonimiz Abu Ali Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlar” asarini butun bashariyat o‘rganishi uchun, undan inson salomatligi uchun foydalansin deb bizga ma’naviy meros sifatida qoldirgani bejizga emas.

Ikkinchidan, jamiyatni birday taraqqiy etishi uchun ichki mehnat bozori, xususan, sog‘liqni saqlash sohasida mehnat qilayotgan xodimlarga davlat siyosati darajasida e’tibor va e’tirofning qaratilishi lozim bo‘ladi. Chunki sog‘lom insonni dunyoga keltirishda bu soha vakillarining o‘rni beqiyosdir. Shu sababdan tibbiyot sohasidagi davlat ulushini oshirish barobarida xususiy sektorni ham davlat tomonidan nazoratga olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Inson sog‘lig‘i inson uchun bebaho boylikdir. Xalqimizda bir naql bor: “To‘rt michang sog‘mi-shuni o‘ziga shukr qil”. Darhaqiqat oxirgi 5 yilda Yangi O‘zbekistonda tibbiyot sohasida amalga oshirilyotgan islohotlarni e’tirof etmaslikning iloji yo‘q. Davalatmiz rahbari tomonidan fuqarolar salomatligi uchun davlat budjetidan juda katta mablag‘ni aholining eng ko‘p qismi istiqomat qiladigan “qishloq joylari”da zamonaviy yangi sog‘lomlashtirish markazlari tashkil etilmoqda, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanmoqda.

Albatta, bu sohada amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishlarmiz juda ko‘p. Lekin jamiyat taraqqiy etar ekan inson ehtiyojlari ham oshib boraveradi. Hech bir narsa ehtiyojsiz amalga oshmaydi. Shu barobarda sog‘liqni saqlash tizimiga bo‘lgan munosabat ham oshib boraveradi.

Aytish joizki, bolalar bog‘chasidagi yozgi sog‘lomlashtirish dam olish maskanlari, maktablarda yozgi ta’til davomida o‘quvchilar hordiq chiqardigan dam olish maskanlari (yozgi lagerlar) yoshi katta fuqarolarimiz uchun davolanish maskanlari (sanatoriylar, pansionatlar) o‘z vazifasini vaqtida ular hayoti va sog‘lig‘i uchun safarbar qilsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.

Uchinchidan, fuqarolar sog‘lig‘i uchun jamiyatda sog‘lom ovqatlanish mexanizmlarini amaliyotga kiritishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Bu borada bog‘chalarimizda ovqatlanish borasida autsorsing va ketring xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali bo‘lajak fuqarolarimizga davlat darajasida e’tibor qaratish har doimgi vazifa bo‘lishi lozim. Shuningdek, maktablarda o‘qiyotgan boshlag‘ich sinf o‘quvchilariga davlat tomonidan bepul ovqat berishni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Va albatta aholinnig kam ta’minlangan, ehtiyojmand qatlamlariga davlat o‘z ulishidan bepul ovqatlantirish yo‘lga qo‘yilsa, aholi salomatligi borasidagi muammolar o‘z yechimini topganday bo‘ladi.

To‘rtinchidan, fuqarolar sog‘lig‘i uchun muhim bo‘lgan yana bir yo‘nalish sportni “ommalashtirish” zaruriyat talab qiladigan jamiyat muammolaridan biridir. Chunki hamma ham sport bilan birday shug‘illanmaydi, balki undan nafratlanadi. Chunki hech kimga ham erta uyqudan turib sport bilan shug‘ullanish yoqmaydi, o‘zi uchun, o‘z sog‘lig‘i uchun bu nechog‘lik kerak ekanligini anglamaydi. Shu sababdan ham sportni bugun davlatimiz o‘z taraqqiyotning kechiktirib bo‘lmas “siyosatlari”dan biri deb e’tirof etmoqda. Bugungi taraqqiy etayotgan jamiyatda sportga bo‘lgan munosabatni aholimiz dunyoqarashida tubdan o‘zgartiradigan vaqt keldi. Buning uchun davlatimiz tomonidan qishloqlarda, mahallalarda va shaharchalarda turli sport seksiyalarini ishga tushirmog‘i lozim bo‘ladi.

Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatida xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish yo‘nalishi jadal rivojlanib bormoqda va uni tartibga solishga qaratilgan davlat siyosati ham evolyusion rivojlanish yulidan ketmoqda. Xususan,

JSST va O‘zbekiston sog‘liqni saqlashning ko‘plab muhim masalalarida yaqindan hamkorlik qilib kelyapti. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevga BMTning yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo ishchi guruhi (YuNIATF) mukofoti topshirildi.

Prezidentimiz rahnamoligida xalqimiz salomatligini muhofaza qilish tizimini saqlash va yanada yaxshilash, sog‘lom avlodni tarbiyalash uchun shart-sharoitlarni shakllantirish va profilaktika tibbiyotini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan e’tirof etilayotganidan dalolatdir. Bu O‘zbekistonning sog‘liqni saqlash sohasidagi yutuqlari JSSA tadbiri ochilish marosimida JSST bosh direktori Tedros Adxanom Gebreyesusning chiqishida ham o‘z aksini topdi. O‘zbekiston dunyoning oz sonli mamlakatlari qatorida o‘z hududida bezgakni to‘liq yo‘q qilishga erishganini e’tirof etgani katta yutuqdir.

Albatta oxirgi 10 yil ichida jahon hamjamiyatini xavotirga solayotgan muammolardan biri turli xil yuqumli kasalliklar va har xil epidemiyalar ko‘payib bormoqda. Bu esa har birmizni bugun ogohlikga, hushyorlikga chaqirmasdan iloji yo‘q. Inson hayotini asrab avaylash, uni hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantirish texnologiyalarini hayotimizga olib kirish har qachongidan ham muhimdir. Jamiyat taraqqiy etar ekan inson sog‘lig‘iga xavf tug‘dirayotgan turli kasallaklar ortib boraveradi. 21 asrning 20 yilida insoniyat uchun kutilmagan sinovli zarbalar bilan boshlandi. Tarixdagi eng xavf kasalliklardan biri “COVID-19” rasman Xitoyda paydo bo‘lgan bo‘lsada lekin u butin dunyo uchun inson sog‘lig‘i ustida qayg‘urishimiz lozim ekanligiga ogohlantiruvchi qo‘ng‘iroq bo‘ldi. Bizning jamiyatimiz ham mavjud epidemiyadan xoli bo‘lgan yo‘q. Odamlar sarosima ostida aksariyatlari o‘z qadrli jonlarini, omonotlarini topshirishda va bu foniy dunyoni tark etdi. Mana shunday og‘riqli va kechiktirib bo‘lmas islohotlar fonida O‘zbek tibbiyoti qay ahvolda edi, uni qanday qilib isloh qilsa bo‘ladi degan o‘ylar, xayollar tinchlik bermas edi. Aholisi milyarddan ziyod bo‘lgan Hindiston bugun tibbiyot sohasida bir qancha yutuqlarga erishib kelmoqda. Albatta u yerda o‘ziga xos ramziy dunyoqarash, e’tiqod erkinligi kabi qarashlar ham mavjudki bu-tibbiyotni ham rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Bizga ham ana shunday erkinlik kerakki bu tibbiyotni ham rivojlanishiga turtki bo‘lishi lozim. Shu bilan birga bizni jamiyatimizda sharq tabobat maktabi azal-azaldan rivoj topib kelgan va insoniyatning gultoji bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Sharq tabobat maktabining darg‘alari bizni yurtmizdan ko‘plab yetishib chiqqan va ular yaratgan tabobat usullari hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Biz yuqorida hind tabobati haqida o‘z fikr mulohazalarimizni bildirib o‘tdik. Shu baraborada sharqda nomi dunyoga tanilgan Xitoy tabobati ham bugun butun dunyoda allaqachon ommalashib rivojlanib bormoqda. Aynan biz ham tabobatni mana shu sir-u asrorlarini asta-sekin o‘zlashtirib bormoqdamizki bu xalqimizga manzur bo‘lmoqda. Hozir yurtimizda ko‘plab tabobat maktablari va dori ishlab chiqarish o‘z faoliyatlari bilan xalqimiz sog‘ligi va hayotiga o‘z insoniylik hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Xulosa o‘rnida shuni alohida takidlamoqchi edimki inglizlarda bir maqol bor: “jarrohda burgutning ko‘zi, arslonning yuragi va ayolning qo‘li bo‘lishi kerak”. Ana shunda odamlar hayoti ishonchli jarrohlar va tabiblar qo‘lida bo‘ladi. Shunda xalqimiz o‘z sog‘lig‘i uchun Germaniya, Rossiya va Hindistonga borib yurishmaydi. O‘z yurtining fidoyi, jonkuyar qo‘li gul jarrohlariga ishonadi va inonadilar.